




JOURNAL OF PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL STUDIES

Volume I, Issue 4

ПЕДАГОГИК ВА ПСИХОЛОГИК ТАДҚИҚОТЛАР

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ И ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ
ИССЛЕДОВАНИЯ



ISSN: 2181-4066
DOI Journal 10.56017/2181-4066

ПЕДАГОГИК ВА ПСИХОЛОГИК ТАДҚИҚОТЛАР

I-ЖИЛД, 4-СОН

ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ И ПЕДАГОГИЧЕСКИХ
ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ-I, НОМЕР-4

PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL STUDIES
VOLUME-I, ISSUE-4

ТОШКЕНТ - 2023

ПЕДАГОГИК ВА ПСИХОЛОГИК ТАДҚИҚОТЛАР

ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ И ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЙ | PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL STUDIES
№ 4 (2023) DOI <http://dx.doi.org/10.56017/2181-4066-2023-4>

Бош муҳаррир:

Нишонова З. – психология фанлари доктори, профессор

Масъул муҳаррир:

Давлатов О. Ф. – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори

Таҳририят аъзолари:

- | | |
|------------------|---|
| Абдужаббарова М. | – педагогика фанлари номзоди, доцент |
| Абдураҳимов Қ. | – психология фанлари бўйича фалсафа доктори |
| Акмалов А. | – педагогика фанлари номзоди, доценти |
| Акрамова Ш. | – педагогика фанлари доктори, профессор |
| Алиев М. | – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори |
| Джураев Д. | – педагогика фанлари доктори |
| Душанов Р. | – психология фанлари номзоди, доценти |
| Негматовна Г. | – педагогика фанлари номзоди, доцент |
| Разакова Р. | – психология фанлари бўйича фалсафа доктори |
| Тожибоева Г. | – психология фанлари бўйича фалсафа доктори |
| Тожибоева Г. | – психология фанлари бўйича фалсафа доктори |
| Тўйчиева С. | – психология фанлари номзоди, доцент |

Мазкур фанлараво илмий-амалий журнал Ўзбекистон Республикаси Президенти Администрацияси ҳузуридаги Ахборот ва оммавий коммуникациялар агентлиги томонидан 2022 йил 22 декабрь куни № 054834-сонли гувоҳнома билан оммавий ахборот воситаси сифатида давлат рўйхатидан ўтказилган.

Саҳифаловчи\Page Maker\Верстка: Абдураҳмон Хасанов

Таҳририят манзили: <https://imfaktor.uz>, 100152, Тошкент шаҳри, Учтепа тумани, “Ватан” МФЙ, Чилонзор 24-мавзеси, 2/27-үй.

Телефон номер: +99894-410 11 55, E-mail: tahririyat@imfaktor.uz

© IMFAKTOR Pages, 2023 йил.

© Муаллифлар жамоаси, 2023 йил.

ПЕДАГОГИКА ПСИХОЛОГИК ТАДҚИҚОТЛАР

ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ И ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЙ | PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL STUDIES

Психология фанлари

MAMADJANOV Ismoiljon Ibragimjon o‘g‘li
Guliston davlat universiteti
magistranti

MAMADJANOVA Irodaxon Olimxon qizi
Guliston davlat universiteti
talabasi
<https://doi.org/10.5281/zenodo.7880087>

OILAVIY AJRIMLARNING KELIB CHIQISH SABABLARI TAHLILI

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada oilaviy ajrimlarning kelib chiqish sabablari ijtimoiy so‘rovnoma natijasi tahlil qilingan holda o‘rganib chiqilgan va yakuniy hulosa qilingan.

Kalit so‘zlar: oila, ajrim, ijtimoiy so‘rovnoma, respondent, er va xotin, jamiyat, yosh toifasi, zo‘ravonlik.

АНАЛИЗ ПРИЧИН СЕМЕЙНЫХ РАЗДЕЛЕНИЙ

АННОТАЦИЯ

В данной статье исследуются причины возникновения семейных споров путем анализа результатов социального опроса и делается окончательный вывод.

Ключевые слова: семья, дискриминация, социальный опрос, респондент, муж и жена, общество, возрастная группа, насилие.

ANALYSIS OF THE CAUSES OF FAMILY DIVISIONS

ANNOTATION

In this country, the causes of family disputes are investigated by analyzing the results of social millet and a final conclusion is made.

Key words: family, discrimination, social survey, respondent, gender, community, age group, gender.


Bugungi jadal tarzda rivojlanib borayotgan dunyo keng hamjamiatida sodir bo‘layotgan har qanday voqealardan hodisalar bizni o‘lkamizni ham chetlab o‘tmayapti. Shiddatli global rivojlanish davrida ilm olish, kasb o‘rganish ko‘nikmalarini o‘zlashtirish ancha qulayliklar tug‘dirayotgan bo‘lsa ba’zan bundan qurol sifatida noto‘g‘ri foydalanish holatlari ham kuzatilib turilmoqda. Oilada yuzaga keladigan zo‘ravonlikni kamaytirish va xotin-qizlar huquqini poymol qilinishini oldini olish maqsadida bir qator islohotlar amalga oshirilmoqda.

Xususan, 2019-yilda qabul qilingan “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”gi, “Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida”gi qonunlar shular jumlasidandir. Xotin-qizlar uchun zo‘rlik ishlatalishdan jabr ko‘rgan shaxslarni reabilitatsiya qilish va moslashtirish, o‘z joniga qasd qilishning oldini olishga qaratilgan 197 ta markaz, yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash bo‘yicha 200 dan ortiq innovatsion maktablar tashkil etildi [1].

Oilaviy ajrimlarning yildan yilga ortib borishi, ba’zi holatlarda oilaviy zo‘ravonliklar haqidagi xabar OAVda tinimsiz chiqib turishi biz hali qilishimiz lozim bo‘lgan ishlar ancha ekanligidan dalolat beradi. Sirdaryo viloyati Mirzaobod tumanida 38 yoshli erkak ayolini g‘isht bilan boshiga urib o‘ldirishi [2], Buxorolik 22 yoshli yigitning ayoli va 5 yoshar o‘g‘lini bo‘g‘ib o‘ldirib yoqib yuborishi [3], Jizzaxda mast holatidagi er xotinini urib o‘ldirishi [4], Farg‘onada er ayolini boshiga bolta bilan urib o‘g‘ir tan jarohati yetkazishi orqali vafot etishi [5], Quyi Chirchiq tumanida xususiy bog‘chada er ayolini kaltaklab ertasi kuniga pichoqlab o‘ldirishi holatlari [6] sodir bo‘lishi odam bolasi o‘ylantirib qo‘yadi.


Odam bolasi shunaqangi qabih ishlarni amalga oshirishi mumkinligi va bu holatlarni qayta-qayta sodir bo‘lishi jamiyatda mavjud ijtimoiy institutlar faoliyatida bir qancha kamchiliklarga yo‘l qo‘yilayotganini anglab yetish mumkin. Shaxs tarbiyasida muhim rol o‘ynaydigan o‘ziga hos mikrojamoalardan biri oiladir. Ishonch va qo‘rquv, hotirjamlik va havotirlanish, muloqotdagi samimiylik va kirishimlilik yoki aksincha kirisha olmaslik va sovuq munosabat – bu hislatlarning barini shaxs oilada egallaydi. Bu hislatlar bola maktabga chiqquncha shakllanadi va bolaning rivojlanishiga uzoq vaqt ta’sir etadi [7].

Bugungi kunda oilaviy ajrimlarning kelib chiqish sabablarini tahlil qilish maqsadida ijtimoiy so‘rovnoma o‘tkazdig va so‘rovnomada **203 nafar** respondent ishtirok etdi. Respondentlarni **jinsiga ko‘ra** tasniflaganimizda **20,7 %** erkak (42 nafar) va **79,3%** ini esa ayollar (161 nafar) tashkil qildi. Ayollar ijtimoiy so‘rovnomada ancha faol qatnashganini diagrammada ham ko‘rshimiz mumkin.



1-sxema

Yosh toifasiga ko‘ra tasniflanganda respondentlarning eng yoshi 16 yoshni va eng yuqori yoshi esa 55 yoshni, 16 yoshdan 42 yoshgacha bo‘lgan respondentlar esa so‘rovnomadagi faollikka ko‘ra ajralib turganini navbatdagi Gistogrammada ko‘rshimiz mumkin.




2-sxema

*Oilaviy holatiga ko‘ra tasniflanganda **54,7%*i*** turmush qurgan ya’ni bugungi kunda oilali (111 nafar), **39,4%*i*** turmush qurmagan (80 nafar) va 5,9%*i* (12 nafari) esa bugungi kunda ajrashgan.*

Biz tahlil jarayonida respondentlarning oilaviy holati, jins va yosh toifasiga ko‘ra alohida tasniflagan holda natijalarini tahlil qilamiz.

Oilaviy holatingiz? – количество




3-sxema

Respondentlarga navbatdagi berilgan **Oilaviy ajrimlarning kelib chiqishiga sababchi asosiy omillar?** degan savolga **56,7%*i*** (115 nafar) o‘zaro bir-birini tushunmaslik, **23,2%*i*** (47 nafar) uchinchi shaxs aralashuvi, **7,9%*i*** (16 nafar) daromad manbaining kamligi va 2,5%*i* (5 nafar) hiyonat deya javob berishgan. Undan tashqari er-xotin o‘zaro majburiyatlarini tushunmasligi, oila boshqarishda ayol kishining aralashuvi, sheringining qurbi va talabi yetmaydigan narsa/holatlarni talab qilishi, farzandsizlik, sabrsizlik, iymonning sustligi, oila haqidagi bilimning yetarli bo‘lmasisligi kabi javoblar **9,9%*ni*** (20 nafar) tashkil etadi.

Ayollarning ijtimoiy faoliyatdagi faollashuvi, uning oilaviy munosabatlariga ta'sir etishuviga olib kelishi mumkin bo'lgan muammolar kelib chiqmoqda, ayniqsa boshqaruv tizimidagi ayolsalohiyati va uning mavqeyining shaxsiy fazilatlariga ta'siri masalalari sezilmoxda, bu jarayonda shaxsiy fazilatlarda ayollik fazilatlari (nazokatlilik, shirinso'zlik), erkaklik fazilatlari (qat'iyatlilik, qattiqqo'lllik, tutgan joyidan kesishga intilish) ga erishish lozimligi ko'rindi, yo'qsa ish faoliyatida samara kamdek tuyulishi mumkin [8].

Oilaviy ajrimlarning kelib chiqishiga sababchi asosiy omillar? – количества




4-sxema

Respondentlarga berilgan **Siz yashaydigan hududda/yaqin qarindoshlaringiz orasida ajrim holatlari kuzatilganmi** degan savolga **27,6%** respondent (56 nafar) yo'q deya, **72,4%ni** esa ha kuzatilgan deya javob bergan (147 nafar). E'tiborlisi yo'q buvam qattiq turadi degan qiziqarli javoblar ham berilgan.


Oilaviy muammolarni tizimli ravishda yechish va kelgusidagi zo'ravonlik, ajrim, umumta'lim maktablarida erta tug'ruqni oldini olish maqsadida oilaga tayyorlash, oila psixologiyasi fanlarini o'tilishiga fikringiz qanday degan savolga **88,2%** respondent (179 nafar) qarshi emasman, bu ijobiy natija ko'rsatadi, **7,9%ni** (16 nafar) qarshiman yoshlari tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatadi va 3,9%ni esa (8 nafari) shu paytgacha ham yomon yashamayapmiz deya javob berishgan.

Maktablarda oilaga tayyorlash, oila psixologiyasi kabi fanlar o'tilishiga fikringiz? – количества



5-sxema


Maqolaning dastlabki qismida oilaviy holati, jinsi va yosh ko'rsatkichlarini alohida tahlil qilishimiz haqida fikr bilidirib o'tilgandi oilaviy holatiga ko'ra **12 nafar (5,9%)** respondentlarning so'rovnomaga bergan javoblarini tahlil qilib ko'ramiz. Jins toifasiga ko'ra 12 nafar respondentning 1 nafari erkak, qolgan 11 nafari ayolni tashkil qilib yosh toifasiga ko'ra eng yoshi 27 yoshni yuqori yoshi esa 50 yoshni tashkil etmoqda. Oilaviy ajrimlarning kelib chiqishiga sababchi asosiy omillar savoliga **50%** respondent (6 nafar) uchinchi shaxs aralashuviga, **25%** respondent (3 nafar) o'zaro bir-birini tushunmaslik va **8,3%**dan umumiy hisobda **24,9%** respondent (3 nafar) hiyonat, ichkilik va hamma javoblarga qo'shilaman kabi javoblarni berib o'tgan.



6-sxema

Qiziqarli jihatni shu tanlab olingan 12 nafar respondentning Maktablarda oilaga tayyorlash va oila psixologiyasi kabi fanlar o'tilishiga fikringiz degan savolga shu paytgacha ham yomon yashamayapmiz (**25%** - 3 nafar) va qarshiman, yoshlar tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatadi (**16,7%** - 2 nafar) deya javob berishgan. Quvonarlisi **58,3%** respondent (7 nafar) bu ijobiy natija berishini ta'kidlab o'tgan.


Maktablarda oilaga tayyorlash, oila psixologiyasi kabi fanlar o'tilishiga fikringiz? – количество



7-sxema

Oilaviy holatiga ko‘ra turmush qurmagan respondentlarni ijtimoiy so‘rovnoma bildirgan fikrlarini tahlil qilarkanmiz umumiylis hisobda **80 nafar respondent turmush qurmaganligi va ularning **67,5%ni** (54 nafar) ayol, qolgan **32,5%**ini esa (26 nafar) erkaklar tashkil etishi, yosh toifasiga ko‘ra eng yoshi 17 yoshni, yuqori yoshli respondentimiz esa 30 yoshda ekanligi ma’lum bo‘ldi. Oilaviy ajrimlarning kelib chiqishiga asosiy sababchi omillar savoliga turmush qurmagan 80 nafar respondentlarimizning **56,3%ni** (45 nafar) o‘zaro bir-birini tushunmaslik, **21,3%ni** (17 nafar) uchinchi shaxs aralashuvi va **10%ni** esa (8 nafar) daromad manbaining kamligi deya javob bergan. Undan tashqari **1,3%dan** umumiylis hisobda **11,7%** respondent (10 nafar) to‘qlika sho‘xlik, hiyonat, er-xotin o‘z majburiyatlarini to‘liq tushunmasligi, dindan bexabarlik kabi qo‘sishimcha javoblar ham berib o‘tilgan.**


Oilaviy ajrimlarning kelib chiqishiga sababchi asosiy omillar? – количества



8-sxema


Oila psixologiyasi, mакtabga tayyorlash darsliklarini umumta’lim maktablari dars jadvaliga kiritilishiga turmush qurmagan respondentlarning fikrini tahlil qilganimizda **83,8%** respondent (67 nafar) bu ijobiy natija berishini ta’kidlab o’tgan. Shu bilan birga shu paytgacha ham yomon yashamayapmiz (**5,0%** - 4 nafar) va yoshlardan tarbiyasini buzadi (**11,3%** - 9 nafar) kabi qarshi fikrlar ham bildirilgan.

Maktablarda oilaga tayyorlash, oila psixologiyasi kabi fanlar o‘tilishiga fikringiz? – количества



9-sxema

Turmush qurgan 111 nafar (86,5% - 96 nafar ayol va 13,5% - 15 nafar erkak) respondentlarning ijtimoiy so'rovnomadagi javbolarini o'rganish natijasida ular yosh toifasiga ko'ra eng yoshi 19 yoshni va eng yuqori yoshi esa 54 yoshni tashkil etishi ma'lum bo'ldi. Oilaviy ajrimlarning kelib chiqishiga asosiy sababchi omillar savoliga bu kategoriya kiruvchi respondentlarni asosiy qismi o'zaro bir-birini tushunmaslik (**60,4%** - 67 nafar) va uchinchi shaxs aralashuvi (**21,6%** - 24 nafar) javoblarini berib o'tishgan. Va turmush qurgan respondentlarni ko'pchilik qismi umumta'lim maktablarida oila psixologiyasi darsligini o'tilishiga ijobiy fikr bildirgan holda qo'llab-quvvatlagan (**94,6%** - 105 nafar).



10-sxema

Xulosa o'rnila oilaviy ajrimlarni yuzaga keltiruvchi asosiy sabablar sifatida **O'zaro bir-birini tushunmaslik, Uchinchi shaxs aralashuvi va Daromad manbayining yetishmasligi** ni ko'rishimiz mumkin. Va bu kabi muammolar uzviy davom etmasligi, kelajakdagi quriladigan yosh oilalarda inqirozli holatlar kuzatilmasligi yoki kuzatilgan taqirda ham yechim topa olishda ilm bilan yondoshishini yo'lgan qo'yish maqsadida umumta'lim maktablarida oilaga tayyorlov kurslarini joriy etish, shu bilan birgalikda yuqori sinf o'quvchilariga oila psixologiyasi darsligini dars jadvaliga kiritish ijobiy natija berishi mumkin.

Kelajakdagi ko'plab muammolar ya'ni o'zaro bir-birini tushunmaslik, qabul qila olmaslik, er-xotin o'rtasidagi konfliktlarni ijobiy yechish, farzanda tarbiyasida yo'l qo'yiladigan xato-kamchiliklarni oldindan anglab yetish kabi imkoniyatlarni beradi. O'quvchi shaxs sifatida o'zidagi fiziologik, anatomiq, biologik, psixologik jarayonlarni anglashi ortidan erta tug'ruqning kamayishi, hissiy emotisional inqiroz davrida o'zini tuta bilishi va oila haqida tushunchaga ega bo'lish kabi ijobiy natijalarga erishilishi mumkin.

IQTIBOSLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “YANGI O‘ZBEKISTON TARAQQIYOT STRATEGIYASI” kitobi. – T.: “O‘zbekiston”, 2022. -47 b.
2. Kun.uz nashrida chiqqan Sirdaryoda erkak xotinini g‘isht bilan o‘ldirdi nomli xabar: <https://kun.uz/news/2022/10/26/sirdaryoda-erkak-xotinini-gisht-bilab-oldirdi>
3. Buxorolik 22 yoshli yigit xotini va 5 yoshli o‘g‘lini o‘ldirib yoqib yubordi nomli xabar: <https://kun.uz/news/2022/11/11/buxorolik-22-yoshli-yigit-xotini-va-5-yoshli-oglini-oldirib-yoqib-yubordi>
4. Jizzaxda mast er xotinini urib o‘ldirdi nomli xabar: <https://kun.uz/news/2022/11/22/jizzaxda-mast-er-xotinini-urib-oldirdi>
5. Farg‘onada er ayolining boshiga bolta bilan urib og‘ir tan jarohati yetkazdi nomli xabar: <https://kun.uz/news/2022/11/25/fargonada-er-ayolining-boshiga-bolta-bilan-urib-ogir-tan-jarohati-yetkazdi>
6. Quyi Chirchiqda kaltaklangan ayol ertasi kuni eri tomonidan pichoqlab o‘ldirildi nomli xabar: <https://kun.uz/news/2022/08/26/quyi-chirchiqda-kaltaklangan-ayol-ertasi-kuni-eri-tomonidan-pichoqlab-oldirildi>
7. Z. Nishanova, M. Xolnazarova va b.lar “Rivojlanish psixologiyasi, pedagogik psixologiya” kitobi. –T.: “Ofset Print”, 2019. -382 b.
8. Aliyeva Xonzodabegim OILAVIY NIZOLAR VA UNDA AYOLNING PSIXOLOGIK SAVODXONLIGI mavzusidagi maqolasi: <https://cyberleninka.ru/article/n/oilaviy-nizolar-va-unda-ayolning-psixologik-savodxonligi/viewer>

ПЕДАГОГИК ВА ПСИХОЛОГИК ТАДҚИҚОТЛАР

I-ЖИЛД, 4-СОН

ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ И ПЕДАГОГИЧЕСКИХ
ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ-I, НОМЕР-4

PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL STUDIES
VOLUME-I, ISSUE-4

«Педагогик ва психологияк тадқиқотлар»
электрон журнали 2022 йил 22 декабрь
куни № 054834-сонли гувоҳнома билан
оммавий ахборот воситаси сифатида
давлат рўйхатидан ўтказилган.

Муассис: «IMFAKTOR Pages» масъулияти
чекланган жамияти.

Таҳририят манзили: 100152, Тошкент
шаҳри, Учтепа тумани, “Ватан” МФЙ,
Чилонзор 24-мавзеси, 2-уй.

Телефон номер: +99894-410 11 55

Эл. почта: tahririyat@imfaktor.uz

Веб-сайт: www.imfaktor.uz